

**UDK:636.32/38.636**

**SUR QORAKO'L QO'Y-QO'ZILARNING BIOLOGIK HAMDA  
MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARI**

**Aliyev D.D.  
Ismoilov K.T.  
Islomova O.P.  
Norbo'tayev M.M.**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada har xil sharoitda boqilayotgan Cho'l-dasht ekologik hududagi qorako'l qo'zilari va tog'-tog'oldi ekologik hududdagi sur qo'zilarining ranbaranglik bo'yicha taqsimlanishi hamda mahsuldorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Qamar, po'loti sur, o'rikgul, shamchiroqgul sur, kumushsimon sur, tillarang sur, guligaz, qambar, qora qorako'l.

**Mavzuning dolzarbliji:** Qorako'lchilikni rivojlantirish borasida ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish qorako'l qo'ylarining fiziologik xususiyati bilan uzviy bog'liq. Respublikamizda tarmoqni rivojlantirishning hozirgi bosqichida, qorako'lchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishda davlat miqyosida juda katta hajmda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada qorako'lchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga erishilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Qorako'lchilik chorvachilikning muhim sohalaridan hisoblanib, qorako'l qo'ylari Respublikamizning umumiyligi yer maydonining 50 % dan ortiqroq qismini tashkil etuvchi cho'l hududlarida urchitiladi. Mazkur zotga mansub qo'ylarning asosiy mahsuloti har xil rang va rangbaranglikdagi qorako'l terilari hisoblanib, undan tashqari go'sht, jun, po'stinbop teri, shirdon va boshqa mahsulotlar olinadi. Manbalarda keltirilishicha hozirgi davrgacha zot tarkibida 4 ta zot tipi, 10 ta rang, 6 ta tus, 33 ta zavod tipi, 4 ta ekologik tip, 4 ta junkonstitutsional tipidagi qo'ylar mavjud. Zotning asosini 50 % qora, 12 % ko'k, 35 % sur va 3 % oq, guligaz, qambar va boshqa rangli qo'ylar tashkil qilishi aniqlangan. [1,5,13]

Kelib chiqishiga qarab, surning quyidagi tiplari farq qilinadi: *Qoraqalpoq suri, Surxondaryo suri va Buxoro suri. Buxoro suri* – rangidan boshqa barcha xossalari qora qorako'lidan umuman farq qilmaydi; faqat tolasi ko'proq ipaksimon, rangli va yaltiroq bo'lishi bilan ajralib turadi. Buxoro surining quyidagi rangbaranglikdagi zotlari farqlanadi; tillarang sur, kumushrang sur, olmosrang sur, jezrang sur, sirenrang sur va boshqa ranglar mavjuddir. Tillarang sur - tolasining ostki qismi kashtan rangda bo'lib, birdaniga och tillarang uchi boshlanib ketadi; Kumushsimon sur – teridagi tolalar to'q qo'ng'ir tola osti, kulrangsimon kumush rangidagi tola uchlarining qo'shilishidan hosil bo'lgann. Sirenrang – tagi qo'ng'ir tusda bo'lib, uchiga qarab asta-sekin och sariq tusga kirib boradi; olmosrang - tubi to'q qoramtilir

yoki qora rangli bo'lib, uchki qismi birdaniga platina rangiga kiradi; qorasur - tagi qora rangda va tola uchining juda kalta 1/10 qismi oqish tusda; oqish sur - tubi och qo'ng'ir va tola uchining ancha uzun qismi (5/10-6/10) oqish rangda. Buxoro suridagi tolalar uzunligi o'rtacha bo'lib, oltinsimon rangli surda qoplovchi tolalar uzunligi 12.0 mm; kumush rang surlar tolalar uzunligi 11.0 mm tashkil qiladi. [2,4,11,14]

*Surxandaryo suri*-qorako'l qo'ylarining platinarang, bronza, yantar va antratsit ranglillari uchraydi. Rangbarangligidagi qorako'l terilari o'zining gul naqshi, estetikligi, yorqinligi, va o'ziga xos jilolanishi tufayli eng qimmatli hisoblanadi. Surxondaryo suri - jingalaklaming bir qancha kattaligi, tolalari ozgina uzunroq va uchlari oqish tusda bo'lishi bilan Buxoro suridan farq qiladi. Platinarang surda – tola tubining qo'ng'ir rangda tola uchi esa och sariq rangida tovlanib turishidan hosil bo'ladi; antratsitrang Surxandaryo surida -tols oski qismi to'q qoramtilr yoki to'q qo'ng'ir rangda uchining kalta qismidagi alyuminsimon rangi bilan qo'shilishidan tashkil topadi; Bronza rangbaranglik sur ko'proq qoramtilr tusda ifodalanib, platina va yantar rangbarangliklarga nisbatan kontrastligi kamroq. Antrotsit rangbaranglik jun qoplamasining ko'proq qoramtilrigi bilan tavsiflanib, jun tolasining uch qismi kul-po'lat rangda ifodalanadi. Ushbu rang va rangbarangliklar jun tolasining pastki qismidagi pegmentning konsentratsiyalash darajasi orqali paydo bo'ladi va jun tolasining distal qismida rangi deyarli to'liq o'zgaradi. Surxandaryo surining ko'proq yorqin o'zgaruvchan tipi. Jun qoplaminining asosi to'q-jigar, uch qismi och-sarg'ish rangda ifodalanadi. [3,5,6,10]

*Qoraqalpoq suri* – rangbaranglik bo'yicha olti xili uchraydi.: po'lati sur, shamchiroqgul, o'rik gul, qamar, shabdor (no'xat rang) va chaqir (jozibali). Po'loti sur - tolalarining tubi qora, uchiga qarab asta-sekin po'lat rangga kira boradi; shamchiroq gul - tolalarining tubi qora va uchi oq; o'rik gul - tolalarining tubi qora yoki to'q jigarrang, o'rtasiga borganda to'q sarg'ish - qo'ng'ir tusga kiradi, uchi oq yoki sariq rangli. Bunday terilar nihoyatda ko'rakam bo'ladi; Qamar - tubi qoramtilr - qo'ng'ir, uchlari esa tillarang - qizg'ish tusda; chaqir-tolalarning tubi qoramtilr-kulrang, uchlari esa sutsimon - oq rangda tovlanadi. Qoraqalpoq suridagi shamchiroq gul rangli tolanning uzunligi 15.4 mm; po'lati sur tolalari 16,4 mm; o'rikgul tolalari uzunligi 14.0 mm va shabdor tolalari 15,1 mm; chaqirgul 16,8 mm va kamargul tolalari 15,7 mm bo'lib, tolalarining uzunligi jihatidan Buxoro suridan ustunlik qiladi. [7,8,9,12]

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqotlarning amaliy tajriba qismi 2021-2024-yillar mobaynida Samarqand viloyati, Nurobod tumani "Najmiddin Salimovich Karimov" fermer xo'jaligi, "Xasan-Zuxra tog' chorvasi" fermer xo'jaliklarining tog, tog'-oldi, adir sharoitlarida hamda Qashqadaryo viloyati Koson tumani "Turon qorako'lchilik" MCHJ tining cho'l, yarim cho'l sharoitida olib borildi ragbaranglikdagi surxondaryo va qoraqalpoq zotli qorako'l qo'ylarida o'tkazildi.

Tajribadagi qo'ylarni konstitutsiyaviy xususiyatlarini tiplarga ajratishda umumqabul qilingan uslublardan foydalanildi (Беляев Д.К., Мартинова В.Н., 1973). Olingan ma'lumotlar variatsion statistika usullarida qayta ishlandi Har bir belgining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi ( $X$ ), uning xatosi ( $S_x$ ) aniqlandi.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi:** Biz tadqiqotlarda asosan qora, surrangli qo'y va qo'zilarda olib bordik. Surrang-shunday rangki jingalakdagi har tolada

ranglar bo'yiga qarab notejis taqsimlanganligi bilan ko'zga tez tashlanadi. Surlilik darajasi sur rangli terilarning tolalarning tubi va uchlaridagi rangi tiniq ifodalanganligi, tolanning och tusli qismi qanchalik chuqur va tiniq ekaniga, tolanning qoramtiling tubi bilan oqish tusdagi uchlari nisbatiga hamda butun teri sathida rangining bir tekisda ekanligiga, kontrastligiga va qoramtiling tubidan oqish tusdagi uchiga qanday (asta-sekin yoki birdan) o'tilishiga hamda butun teri sathiga rangining bir tekisligiga qarab aniqlanadi. Tolanning qoramtiling tubidan birdaniga uning oqish uchiga o'tilishi rangining kontrastligini keltirib chiqaradi va terilarga ko'raklik baxsh etadi. Bunday xususiyat terilarning sifatini oshirib, ularni juda qimmatga baholanishini ta'minlaydi. Sur terilar tolasining qoramtiling tubidan oqish tusdagi uchiga o'tish kontrastligiga qarab ular rangining ravshanligi g'oyat xilma-xil (ko'rakdan tortib o'ta xira bo'lishgacha) boradi. Sur terilar rangining butun teri yuzasida qanchalik bir tekis bo'lishi, ularning bir tusda ekanligini tavsiflandi.

Biz ikkita tabiiy ekologik hududda tadqiqotlar olib bordik. Birinchisi Cho'l-dasht ekologik hudud-Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Buxoro suriga tegishli 2800 ga yaqin qorako'l qo'zi va qo'ylari. Ikkinchisi .Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi tog'-tog'oldi ekologik hududidagi qora qorako'l va sur rangbaranglikdagi qo'zi, qo'chqor, qo'ylarda olib borildi.

#### 1- jadval

**Cho'l-dasht ekologik hududagi qorako'l qo'zilarining rangbarangliklar bo'yicha taqsimlanishi, % (Qashqadaryo viloyati Koson tumani)**

Rang va rangbarangliklar	Rang va rangbaranglikning taqsimlanishi, %					
	2021 yil		2022 yil		2023 yil	
	n	%	n	%	n	%
<b>Kumushrang sur</b>	580	27,5	806	37,5	913	34,2
<b>Olmosrang sur</b>	248	11,7	278	11,9	351	13,1
<b>Tillarang sur</b>	350	16,6	480	20,7	555	20,8
<b>Sirenrang sur</b>	84	3,9	121	5,2	184	6,9
<b>Qora qorako'l</b>	301	14,3	363	15,6	539	20,2
<b>Oq rang</b>	14	0,7	26	1,1	36	1,3
<b>Qambar</b>	105	5	110	4,7	34	12,7
<b>Guligaz</b>	426	20,2	135	5,8	55	0,2
<b>Jami</b>	<b>2108</b>	<b>100,0</b>	<b>2319</b>	<b>100,0</b>	<b>2667</b>	<b>100,0</b>

Cho'l-dasht ekologik hududdagi sur qorako'l qo'zilarining rangbaranglik bo'yicha taqsimlanishi 3.2.1-jadvalda mujassamlashtirilgan. "Turon qorako'lchilik" masulyati cheklangan jamiyatining (MChJ) cho'l-dasht hududlarida № 4 otar instiruksiya bo'yicha bonitirovka qilinganda olingan malumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, qora, qambar, guligaz rangbaranglikdagi qo'zilar 2021 yilga nisbatan 2022 va 2023 yillarda mos ravishda bosh sonini kamayishini kuzatilgan, kumushrang, tillarang va oq rang rangbaranglikdagi qo'zilar mos ravishda 5,3%; 4,3% va 2,1% ga ko'payganini ko'rish mumkin. Umumiy qo'zilar soni 10,12 % ga ortishi, qo'zilar yashash tarzi va ozuqasining yaxshilanishi bilan bo'gliq.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlaridan tahlil qilib shuni aytish mumkinki, kumushrang va tillarang-baranglikdagi qo'zilarga yoz va qishning ozuqa yetishmagan, taqchil paytlarida suv va qo'shimcha ozuqasi qo'shib berilishi natijasida qo'zilar salmog'ining oshishiga olib kelgan. Shuningdek sur qorako'l zotli qo'ylar seleksiyasida tus va rangbaranglikning namayon bo'lishi bilan bog'liq holda gul xillari bo'yicha tanlash va juftlash qorako'lchilikda mahsuldorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biz esa asosan ularni rangi bo'yicha guruhlarga ajratdik.

Biz tadqiqotlarimiz davomida Samarqand viloyati Nurobod tumani, Tog'-tog'oldi ekologik hududda joylashgan fermer xo'jaligidagi mavjud qorako'l qo'ylar 3 yil davomida rang-baranglik bo'yicha bosh sonining o'zgarish dinamikasini o'rgandik. Ularni rangi bo'yicha guruhlarga ajratdik. Guruhlashda tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan qo'zilar tanlab olindi. Jins va

## 2.-jadval

**Tog'-tog'oldi ekologik hududdagi sur qo'zilarining ranbaranglik bo'yicha taqsimlanishi,% (Samarqand viloyati Nurobod tumani Qoraqalpoq suri)**

Gul tiplari	Yillar bo'yicha taqsimlanishi,%					
	2021 yil		2022 yil		2023 yil	
	n	%	n	%	n	%
<b>O'rikgul</b>	203	41,7	244	42,2	346	42,8
<b>Po'lti sur</b>	97	19,9	117	20,2	166	20,6
<b>Shamchiroq gul</b>	117	24,1	144	24,9	203	25,1
<b>Qamar</b>	69	14,2	75	12,7	93	11,5
<b>Jami</b>	486	100,0	580	100,0	808	100,0

Xo'jalikdagi tog'oldi-adir ekologik hududidagi sur qorako'l qo'zilarining gul rangbaranglik bo'yicha taqsimlanishi yillar davomida o'rganilganda, qimmatli hisoblangan o'rikgul tipidagi qo'zilar salmog'i 2021 yilga nisbatan 2022 va 2023 yillarda mos ravishda 0,5% va 0,6% ga oshishi kuzatildi. shamchiroqgul tipidagi qo'zilar salmog'i mos ravishda 0,8 va 0,2 foizga, po'lati sur tipidagi qo'zilar salmog'i esa mos ravishda 0,3 va 0,4 foizga oshishi kuzatilgan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'limgan qamar sur qo'zilar salmog'i mos rvishda 1,5 va 1,2 foizga kamayishi kuzatildi.

**Xulosa.** Xulosa qilganda tajriba otalaridagi kumushsimon va tillosimon rangbaranglikdagi qo'zilar tegishli ravishda 11% dan 15% gacha ko'paygan. Qora va boshqa rangli qo'zilar soni kamaygan. Tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki teri sifatlari bo'yicha 2021 yil natijalariga taqqoslanganda kumushsimon va olmossimon terili qo'zilar 11 – 15 foizgacha oshgan.

Umumiy tog'oldi, adir hududidagi sur qo'zilar bosh soni 5%ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni qo'zilarning umumiy miqdori dastlabki va oxirgi yillardagi farqdan kelib chiqib 1,66 marta ortganligi aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Алиев А.А. Сезонная динамика обмена веществ в организме каракульских овец / А.А. Алиев, Т.М. Мухадов, Х.Х. Рахманов, Д.Х. Дурдыев // Вопросы физиологии и биохимии питания овец. - ВАСХНИЛ. - М., 1981. -С. 86.

2. Арипов, У.Х. Практикум по генетике и профилактике болезней сельскохозяйственных животных. / У.Х. Арипов, Д.Д. Алиев, А.С. Даминов, М.И. Омонов. Учеб. пос. Самарканд, 2017. – С. 8-10. 108
3. Юсупов С.Ю., Ахмедов Ф.А., Фазилов У.Т., Газиев А. Селекция и племенные ресурсы в каракулском овцеводстве. Ташкент 2010,-195 с.
4. Фазилов, У.Т. Каракулская порода овес. / У.Т. Фазилов. Монография. Самарканд, - 2013, - С. 184-187.
5. Gaziev A., Variability Of Some Selection Parameters of Karakol Sheep in the Conditions of the Sandy Desert //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – Т. 9. – С. 59-61.
6. Ismailov M.Sh., Nasimov E.N., Inoyatov A. Ismailova M.M. Qorako'l qo'yalarining jun mahsuldorligini oshirishda ularning biologik salohiyatidan foydalanish. Cho'l -yaylov chorvachiligi va ozuqa yetishtirish muammolari. Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining 85-yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand. 2015.- 206-208 b.
7. Ismailov K.T. INFLUENCE OF ADDING IODIZED SUPPLY SALT TO THE FEED ON THE HEMATOLOGICAL INDICATORS OF KORAKOL LAMB/ International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Germany-2024, p-22-26
8. Ismailov K.T. SEASONAL VARIABILITYOF HEMATOLOGICAL INDICATORS OF KORAKOL LAMBS LIVING IN DIFFERENT ECOLOGICAL AREAS/ СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАУКИ, ОБЩЕСТВА И ОБРАЗОВАНИЯ сборник статей VII Международной научно-практической конференции, Состоявшейся 27 декабря 2024г. в г. Пенза, С- 290-295.
9. Ismoilov K. T., "Interrelation of Viability and Productivity Indicators with Ethological Characteristics in the Growth and Development of Sur Karakol Lambs" CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES volume: 04 Issue: 02 | Mar-Apr 2023 ISSN: 2660-4159, 219-223
10. Ismailov K. T., Aliyev D. D. Relationship of potassium content in the blood with reproductive physiology of Sur Karakol sheep // SCIENTIFIC JOURNAL OF AGROBIOTECHNOLOGY AND VETERINARY MEDICINE. - 2022. - S. 642-645.
11. Ismailov K.T., Aliyev D.D, Okhunova S. Dependence of microelements on viability and hematological indicators of Sur Karakol lambs "Food insecurity: National and global problems" Scientific journal, No. 3. Samarkand, 2023, pp. 87-91.
12. Мартынова, В.И. Итоги изучения высотной акклиматизации овец / В.И. Мартынова // Горное животноводство северного Кавказа: сб. тр. – Орджоникидзе, 1963. – 358с.
13. Sadirova Saodat."Charm va mo'yuna xomashyolariga dastlabki ishlov berish" O'quv qo'llanma. Toshkent «Yangi asr avlod» 2010y 118-119 bet
14. Юсупов С.Ю. Конституциональная дифференциация и продуктивность каракулских овцев. Ташкент 2005 256с